



**MAMLAKATIMIZDA G‘AZNACHILIK TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA BYUDJET MABLAG‘LARI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘LLARI**

Abramatov Eldor Toshmamatovich

O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat moliya tzimida g’aznachilik timining tashkiliy tuzilishi va uning byudjet mablag’larini samaradorligi oshirish hamda uning davlat moliyasini boshqarishdagi o’rni va ahamiyatini oshirish yo’llari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: g’aznachilik tizimi, davlat byudjeti, byudjet mablag’lari, moliaviy boshqaruvi, davlat moliyasi, samaradorlik, byudjet ijrosi, yagona g‘azna hisobraqami, moliaviy nazorat, fiskal siyosat, iqtisodiy islohotlar, davlat moliyaviy resurslari.

Davlat moliyasini samarali boshqarish va nazorat qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda g’aznachilik tizimi muhim bo‘g‘in sifatida e’tirof etiladi. Buning sababi, aynan g’aznachilik tizimi byudjet daromadlari va xarajatlarini yagona g‘azna hisobvaraqla jalg etib, pul oqimlarini to‘g‘ri hamda samarali boshqarish va byudjet ijrosini tezkor hamda shaffof ta’minalashga xizmat qiladi. Byudjet mablag’laridan oqilona foydalanishni ta’minalash uchun byudjet xarajatlari ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish va ularning samaradorligini doimiy tahlil qilib borish zarur Ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda g’aznachilik tizimi asosiy vositalardan biri bo‘lib, u mablag’larning maqsadsiz sarflanishining oldini olish, byudjet intizomini mustahkamlash hamda moliaviy jarayonlarda shaffoflikni ta’minalashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu ma’noda, g’aznachilik tizimini yanada takomillashtirish va byudjet mablag’larini samarali hamda maqsadli sarflash masalasi ushbu islohotlar kontekstida yanada dolzarb



ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, g‘aznachilik tizimini takomillashtirish va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish jamiyat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omillar sirasiga kiradi.

Ushbu islohotlar byudjet mablag‘lari harakatini yagona g‘azna hisobvarag‘ida markazlashtirish, tushum va xarajatlarning onlayn monitoringini yo‘lga qo‘yish va moliyaviy intizomni kuchaytirishga imkon yaratmoqda. Natijada, byudjet mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik, hisobdorlik va tejamkorlik tamoyillari keng joriy etilmoqda.

Davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlar bilan bir qatorda g‘aznachilik ijrosining huquqiy bazasini kengaytirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2013-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-360), 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-472), Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagagi “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, shuningdek, 2022-yil 21-fevraldagagi 82-son qaror davlat g‘aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish tartibini takomillashtirdi.

G‘azna ijrosi tizimiga muvofiq, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari yagona g‘azna hisobvarag‘ida jamlanadi va xarajatlar aynan shu hisobvaraq orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv byudjet mablag‘lari oqimini tezkor nazorat qilish va samarali boshqarishga keng imkoniyat yaratadi.

Ilgari “Budget tizimi to‘g‘risida”gi Qonunida (37-modda) byudjetning kassa ijrosi Markaziy bank tomonidan Moliya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, mablag‘lar to‘lov topshiriqnomalari asosida byudjet qoldiqlari doirasida sarflanardi.


Xalqaro tajribaga ko‘ra, g‘aznachilik ijrosi davlat moliyaviy resurslari harakatini nazorat qilish, daromad va xarajatlar hisobini yuritish hamda byudjet majburiyatlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun mas’ul bo‘lgan muhim davlat instituti sifatida faoliyat yuritadi.

Davlat byudjeti ijrosiga g‘aznachilik tizimini joriy etish mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Budjet kodeksida kassa rejasini tuzish va uni amaliyatga joriy etish tartibi ham belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bunda kassa ijrosi jarayonlari daromadlarning yig‘ilishi va Yagona g‘azna hisobvarag‘idan (YaG‘H) xarajatlarning amalga oshirilishini qamrab oladi.

Moliya vazirligi YaG‘Hdagi mablag‘larni davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlariga asosan boshqaradi. YaG‘H Markaziy bankda ochilgan maxsus hisobvaraq bo‘lib, unda davlat byudjeti mablag‘lari jamlanadi va ulardan xarajatlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni Davlat budjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo‘li orqali amalga oshiradi. Yagona g‘azna hisobvarag‘i (YAG‘H) G‘aznachilikning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan Davlat budjeti pul mablag‘lari jamlanadigan va undan Davlat budjeti mablag‘larini sarflash bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan hisob raqami hisoblanadi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i o‘tish sharoitida G‘aznachilik tizimining amal qilishi Davlat budjeti ijrosining sifat jihatdan yangi texnologiyasi hisoblanadi, bunda quyidagi holatlarga jiddiy e’tibor qaratiladi, ya’ni barcha darajadagi budgetlar





1-rasm. G‘aznachilik orqali xarajatlar to‘lovining amalga oshirilishi ketma-ketligi¹

hisobidan amalga oshirilgan davlat budjeti xarajatlari va daromadlari bo‘yicha operatsiyalarning “G‘aznachilik” Dasturiy majmuida har kuni aks ettirilishi va shunday tarzda Davlat budjeti ijrosi haqidagi hisobotni istalgan sana va hisobot davri uchun tezkor shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur jarayonni G‘aznachilik orqali xarajatlar to‘lovining amalga oshirilishi ketma-ketligida ko‘rish mumkin

Yagona g‘azna hisob raqamidan foydalanilgan holda Davlat budjeti ijrosiga o‘tish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- budget tashkilotlarning tijorat banklaridagi ko‘plab bank hisob raqamlarida budget mablag‘lari tarqalishining oldini olish;
- moliya resurslarining katta konsentratsiyasi va oqimini hisobga olgan holda to‘lovlarning budjetdan mablag‘ oluvchilardan tovarlar yetkazib beruvchilarga yetib borish tezligining oshishiga erishish;
- budget mablag‘larini taqsimlovchilarining shaxsiy hisobvaraqlaridan mablag‘larni sarflash bo‘yicha barcha operatsiyalarni G‘aznachilikda jamlash;
- g‘aznachilik nazorat vazifalri qismini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi².

Yagona g‘azna hisobvarag‘ini takomillashtirish
Davlat xarajatlari monitoringini kuchaytirish
Raqamli texnologiyalarni joriy etish
Moliyaviy resurslar harakati ustidan nazorat
Byudjet mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik
Davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish
Byudjetdan tashqari jamg‘armalarni integratsiyalash

¹ Mansurov M.A. G‘aznachilik bo‘linmalarida budget mablag‘larini sarflashda xarajatlarni to‘lash uchun ruxsatnomalar berilishi mexanizmdan foydalanish.//www.iqtisodiyot.uz

² Kilberg V. Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tish sharoitida budjetning g‘azna ijrosini tashkil etish.//Moliyachi ma’lumotnomasi.//2012. №6. 13-bet.



2-rasm. G‘aznachilik tizimini rivojlantirish va byudjet mablag‘lari samaradorligini oshirish yo’llari³

Davlat byudjeti g‘azna ijrosi byudjet jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. G‘aznachilik operatsiyalari amalga oshirilishida byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishda tasdiqlangan istiqbol ko‘rsatkichlari, moliyaviy rejalari va ishlab chiqilgan dasturlarning amaliy ijrosi qat’iy nazorat ostida bo‘ladi. Xarajatlar faqat to‘lov intizomiga rioya qilingan holda, belgilangan tartib asosida moliyalashtiriladi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilik tizimi orqali byudjet mablag‘lari oqimlarini samarali boshqarish, byudjet xarajatlari ijrosi davomida ortiqcha kassa qoldiqlarini kamaytirish va shu orqali davlat byudjetining balanslashuviga erishish imkoniyati yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra, 2020–2023-yillar davomida byudjet taqchilligining oshib borish tendensiyasi kuzatildi. Shu munosabat bilan, istiqbolda byudjet taqchilligini YaIMga nisbatan 3 foizlik yuqori chegarada ushlab turishni nazarda tutuvchi “Fiskal qoidalar”ga qat’iy amal qilish zarurligi asoslab berildi.

Shuningdek, byudjet xarajatlari tarkibida ta’lim sohasi xarajatlarining ortib borayotgani kuzatildi. Xususan, oliv ta’lim muassasalarini moliyalashtirish ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish qayd etilmoqda, bu esa mamlakatning inson kapitaliga bo‘lgan e’tibori ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, g‘aznachilik tizimi davlat byudjeti mablag‘lari harakatini samarali boshqarishda, xarajatlarning maqsadli va shaffof sarflanishini ta’minlashda hamda byudjet intizomini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida byudjet taqchilligini belgilangan fiskal qoidalar asosida nazorat qilish va ta’lim sohasi xarajatlarining samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bevosita hissa qo’shadi.

³ Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi "Budjet kodeksi" O'RQ-360-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi O'RQ-813-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuni
4. Robert D. Lee, Ronald W. Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition (July 30, 2012). USA.
5. Budjet ijrosiga g'aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. -T.: TMI, 2011, 113 - 114 b.
6. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYUN ISTIQLOL MO'JIZASI. 2009.
7. Pulatov D., Nurmuxamedova B., "G'aznachilik" Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
8. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвеститцион фаолияти. Science and Education, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
9. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. Science and Education, 4(6), 881–887. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
10. Inomjon, J., & Sarvar, a. (2023). Suveren fondlar faoliyati va ularning moliyaviy mablag'larini samarali foydalanishning xorij tajribasi. pedagogs jurnali, 35(4), 102-108.
11. The social importance of sovereign wealth funds. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1028-1034.
12. Targeted planning of budget expenditures and impact on social policy. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1442-1444.



13. Iqtisodiyotni rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1418-1422.
14. O‘zbekiston respublikasida davlat xaridini tashkil etish va uni takomillashtirish. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1428-1432.
15. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O’ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
16. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
17. Turayevich, J. I., & Akmal o‘g’li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASINING O’RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
18. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
19. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1–8.
20. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
21. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(11), 71–76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>
22. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). TAX



- RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
23. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104–114.
24. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. Academia Repository, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
25. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
26. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.
27. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.
28. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023



29. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
30. Oppog'ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g'aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 5(5), 504–512.
31. Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 27, 100–107.
32. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 233-243.
33. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
34. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
35. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
36. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
37. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and



Education, 4(2), 1509–1516. Retrieved from

<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>

38. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).